



PEDAGOGIKA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

Qadamboyeva Farangiz Polvon qizi

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7588336>

ARTICLE INFO

Received: 21st January 2023

Accepted: 30th January 2023

Online: 31st January 2023

KEY WORDS

*Pedagogika, tarbiya,
psixologiya, metod, ta'lim,
innovatsiya, aloqadorlik,
falsafa, sotsiologiya.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi borasida so'z boradi. Pedagogika fani jamiyatning tayanchi hisoblanar ekan, u juda ko'p sohalar hamda fanlar bilan aloqadordir. Shuningdek, ushbu maqolada pedagogikaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati borasida ham fikr yuritiladi. Mashhur pedagoglarning pedagogika to'g'risidagi fikr hamda qarashlari ham ushbu maqoladan o'rin olgan.

KIRSH. Pedagogika fani ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'qituvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, ta'lim mazmuni va tarbiyaning kelgusidagi istiqbollari, yo'llari va usullarini ko'rsatib boradi.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash nihoiyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Chunki har bir bola, har bir o'quvchi jamiyatning a'zosi hisoblanadi va jamiyatning taraqqiy etishi yoki tanazzulga uchrashi aynan shu shaxslarga bog'liqdir.

ASOSIY QISM. Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o'ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogika o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko'pgina



masalalarni hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o'quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

"Pedagogika" fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog'liqdir. "Falsafa" fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya'ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gnoseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni his qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.[2]

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiylikini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo'nalishga ega ekanligini ta'kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi. Insonning aqliy rivojlanish qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta'limning ba'zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi. Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarning yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiriladi.

Hozirgi vaqtda psixologlar, pedagoglar hamda metodistlar bilan birgalikda ta'lim ishlari va o'quvchilarga tarbiya berishning saviyasini ko'tarishga yordam berishi mumkin bo'lgan



muammolarni hal qilishga e'tibor bermoqlari kerak. Chunki bilim olish, ilmning yuksak cho'qqilarini zabt etish har bir o'quvchining vazifasi hamda burchi hisoblanadi. Ayni damda zamonning talablari ham har tomonlama rivojlanishni, ilmni yuksak cho'qqilarga olib chiqishni e'tirof etadi.

"Ilm deb o'qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o'rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur... Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdirur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur"[3]

XULOSA. Haqiqatan ham, ilm inson uchun g'oyatda oliy fazilat hisoblanadi. Ana shu ilmni o'rgatuvchilar, ilmga da'vat etuvchi insonlar esa pedagoglar hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya amaliyotida yana bir qancha masalalar borki, ularni hal qilishda ham psixologlar ishtirok etishlari kerak. masalan, o'quvchilarning o'quv vaqtini, darsda o'tiladigan o'quv materialining hajmini, uy vazifasining hajmini qanday qilib unumli taqsimlash mumkinligi haqidagi masala bolalarning internet sharoitidagi hayotining ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'siri va shu sharoitda bola shaxsini shakllantirish haqidagi masala: maktab-internatlarda va kuni uzaytirilgan maktablarda o'quvchilar mustaqil mashg'ulotlarini tashkil qilish haqidagi masala. Ta'lim berish va rivojlantirish haqidagi, boshqachasiga aytganda, rivojlantiruvchi ta'lim haqidagi masalani ham juda dolzarb deb hisoblamoq kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jamiyatni pedagogika fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, pedagogika fanini esa, boshqa fanlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki barcha fanlar uzviy bog'langan ravishda, har biri zanjirning bitta halqasi bo'lib, jamiyatning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya sohasida erishilgan yutuqlar boshqa sohalar hamda fanlarning ham rivojlanishi uchun asos vazifasini o'taydi desak, mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Shunday ekan, pedagogika fanini rivojlantirish barcha sohalar uchun manfaatlidir.

References:

1. B. S. Abdullayeva, A. A. Xoliqov, H. M. Sodiqov, Sh. Q. Primov, Sh. R. Zarmasov. Umumiy o'qituvchilik. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021.
2. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy o'qituvchilik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: "yoshlar nashriyot uyi", 2018.